



*Azim SUYUN*

## MILLAT BAYROĞI

Qora o'tmish qoldi ortda,  
Dorilomon kunlar yurtda,  
Mehr — ko'zda, muhabbatda,  
Porla, Millat Bayrog'i!

Osmon to'la yulduz — oppoq,  
Bir-biridan chaqnoq, biroq —  
O'n ikkisi eng yarqiroq,  
Porla, Millat Bayrog'i!

Mangulik hur yo'lidasan,  
O'ngidasan, so'lidasan,  
Ozod xalqing qo'lidasan,  
Porla, Millat Bayrog'i!

## NON BILAN KITOB

— Hayotda eng zo'r ham, aziz ham sensan. Meni ham sen dunyoga keltirib, qayrab voyaga yetkazding. Shu boisdan bir umr senga ta'zim qilishni o'zim uchun burch deb bilaman, — dedi Aql Kitobga.

— O, do'stginam, menga kelganda zehningni jilovlay olmay sal bo'shashtirib yubording. Bilmasang bilib, qulog'ingga quyib ol. Mendan ham azizroq narsa bor. Bu — Non! Men non oldida qarzdorman, — javob qildi kitob.

— Non? — taajjublandi Aql.

— Ha, Non mendan ulug'. Zero och qoringa so'z kirmas. Sen rahmatni mendan avval Nonga ayt.

### ***KITOB HAQIDA***

Kitob – oftob.

\*\*\*

Kitob bilim beradi,  
Bilim baxt keltiradi.

\*\*\*

Kitob — aql chirog'i.

\*\*\*

Ko'p yurgan ko'p ko'rar,  
Ko'p o'qigan ko'p uqar.



## **QALDIRG'UCH**

Erkdan nishona bo'lib,  
Nurli peshona bo'lib,  
Uchib keldi qaldirg'och,  
Ko'kda otib keng quloch.



Baxt-iqbol olib keldi,  
Istiqbol olib keldi.  
Erksevar yuraklarga,  
Istiqlol olib keldi.

## **MAQOLLAR**

*Vatani borning baxti bor,  
Mehnati borning — taxti.*

\* \* \*

*Avval salom, keyin — kalom.*

\* \* \*

*Aybiga iqrор — mard kishi,  
Yashirmoq — qo'rqoq ishi.*

## QAYOQDAN BILAY...

— Akang qanaqa o‘zi, yaxshimi, yomonmi? — so‘radi Qo‘zidan Takavoy.

— Akamning yaxshi yoki yomonligini men qayoqdan bilay, — javob berdi Qo‘zi.

— Iya, bir onaning qornidan talashib-tortishib tushgan egizakning birisan-ku, akangning qanaqaligini bilmaysanmi? — jahli chiqdi Takavoyning.

— Birgalikda mehnat qilmagan, safarga chiqmagan bo‘lsam akam qanaqaligini qanday bilay, — debdi Qo‘zi. — Safarga chiqay, akamning yaxshi-yomonligini o‘shanda aytib beraman.

## HANDA

O‘qituvchi: — Karim, sening inshoying juda yaxshi yozilgan. Ammo u Farhodnikiga aynan o‘xshaydi. Buni qanday tushunish kerak?

Karim: — Demak Farhodniki ham yaxshi yozilgan ekan.

**Abdulla AVLONIY**

## **AQLLI BOLA**

*(Hikoya)*

Bir bola qo'ynida o'ralmish tovoqda taom olib borur edi. Bir kishi uchrab:

– Ey, o'g'lim, tovoqda nima olib borursen? – dedi.

Aqli bola javob berib:

– Ey otajon, tovoq ichindagi narsani kishiga aytmoq va ko'rsatmoq mumkin bo'lsa edi, usti o'ralmagan, ochiq bo'lur edi, – dedi.

**Abdusaid KO'CHIMOV**

## **TOPIB KELAMAN**

Buvi:

– Hech uyqum kelmayapti,  
Endi nima qilaman?

Nevara:

– Qaydaligin aytsangiz,  
Hozir topib kelaman.



## BIR "QOSHIQ" SHO'RVA

Barnoning buvisi:

– Bir qoshiq achchiqqina sho'rva qila qoling, kelin, – dedi.

Ovqat pishar mahalda, nima ham bo'lib, Barno oshxonaga kirgan edi, qozonga ko'zi tushib:

– Oyi, – dedi hayron bo'lib.

– Nima, qizim?

– Nega buvimning aytganlarini qilmadingiz?

– Voy, ana, – dedi oyisi, – sho'rva qilayapman-ku. Barno labini burib, oyisiga qaradi:

– Buvim bir qoshiq sho'rva qilgin desalar, siz bir qozon sho'rva qilyapsiz-ku!..

***Tursunboy ADASHBOYEV***

## ESKI BO'LIB QOLADI

Dilshod yangi tufisini

Nimagadir kiymaydi.

Yalang oyoq yurar doim,

Balki ko'zi qiymaydi.

– Bor, tufingni kiyib ol,

Bunday yurish g'alati.

– Tog'a, uni kiysammi,

Fski bo'lib qoladi...





*Abdulla AVLONIY*

## YOLG'ON DO'ST

Bir vaqt ikki kishi do'st bo'lib, safarga chiqmishlar edi. Bir tog' ichida ketub borganlarida uzoqdan bir yo'lbarsni ko'rmishlar. Do'stlarning biri darhol yugurib, bir daraxt ustiga chiqmish. Ikkinchisi shoshilib qolub, nima qilishini bilmay, yerga cho'zulub, o'likka o'xshab yotmish. Yo'lbars kelub, iskab-iskab, o'luk gumon qilib, qaytib ketmish. O'rtog'i daraxtdan tushub: "Birodar, yo'lbars qulog'ingga nima deb so'zlab ketdi?", – deb so'ramish. Yo'ldoshi: "Oh, do'stim! Shodlig'ingda o'rtoq bo'lub, g'am vaqtingda tashlab qochadurg'on nomard kishilar ila yo'ldosh bo'lmag'il", – dedi.

**OTA-ONA**

Ota-ona — ikki soʻz,  
Biri qosh-u, biri koʻz.  
Bir-biridan qimmatli,  
Mehri daryo himmatli.  
Ular oʻzin oʻylamas,  
Farzandi sogʻ boʻlsa bas.  
Goh yiqilib, tursa ham,  
Gohi yigʻlab, kulsa ham.  
Hammasiga chidarlar,  
Bular qoʻsha chinorlar.

**HIKMATLAR GULDASTASIDAN**

- ❖ Ona – birinchi muallimdir.
- ❖ Onaning mehri – muqaddas.
- ❖ Ota – umr bogʻboni.
- ❖ Otang borida yoʻlingni tani.
- ❖ Bola – oʻz ota-onasi bilan baxtli.
- ❖ Onadan koʻzi toʻygan odam yoʻq.



## **YUKNING OG'IRI**

Yakshanba kuni edi. Bozorni tomosha qilib yuruvdim, bir kampir yoniga chaqirib qoldi. Bir qo'lida tugun, ikkinchi qo'lida to'rvaga.

– Assalomu alaykum, buvijon.

– O'g'lim, vaqting bo'lsa, mana shu yukni uyimga eltishib bersang...

Ishim bor deb qutulsam bo'lardi-yu, lekin... Qo'lidagi to'rvaga qaradim. Liq to'la ho'l meva. Albatta, og'ir bo'lsa kerak. Yaxshisi tugunni ola qolay.

Rostdan ham tugun yengil ekan. Lekin yengilligini sezdirmay, "Voy, buncha og'ir" deb qo'ydim. Kampir kulib qo'ydi.

Nihoyat, kampir ko'rsatgan qizil eshikka yetib keldim, qo'ng'iroqni bosdim. Sal vaqtdan so'ng eshik ochildi.

Qay ko'z bilan qarayki, qarshimda maktabimiz direktori Soli aka turardi!

– Ha, Shuhratjon, senmisan? Marhamat, uyga kir. Hozir keluvdim. Uyda hech kim yo'q.

Negadir vujudimdan ter chiqib ketdi. Bir payt yukning og'irligidan bellari bukchayib haligi kampir kelib qoldi.

– Voy, Soli o'g'lim, seni kuta-kuta bozorga o'zim boruvdim. Manavi bolaga rahmat. Bozordan yukning og'irini ko'tarib keldi. Kam bo'lmasin, yaxshi bola ekan.

Soli aka oldin qo'limdagi tugunni, so'ng kampirning qo'lidagi to'rvani oldi.

– Rahmat senga, – dedilar keyin ma'nodor qilib.

Hech qachon bunday qizarmagandim.

## **HADISLAR**

❖ *Yaxshi bola – oila bog'i, yomoni esa dog'i.*

❖ *Odobli farzand – ota-onaning umrini uzaytiradi.*

❖ *Yaxshi farzand – oilani obod qiladi, yomoni – barbod qiladi.*

❖ *Yigitning or-nomusi – jonidan qimmat.*

❖ *Qiz bola – oilaning zebi.*

❖ *Yigit – oilaning quvonchi va faxri.*

## OTA – AQL, ONA – IDROK

Odatda otani padari buzrukvor, onani esa mehribon volida deymiz. Chunki har bir inson uchun otadan ulug' va qadrdon, onadan mehribon va yaqin kishi yo'q. Haqiqatdan ham, ota-ona buyuk zotlardir. Ular siz bilan bizni dunyoga keltirib, ko'z qorachig'idek asrab-avaylab voyaga yetkazibgina qolmasdan, hamma vaqt quyosh yanglig' hayotimizga nur sohib turadilar. Bamisoli oy kabi tunimizni yorug', yo'limizni oydin qiladilar. Shu boisdan ham, eng go'zal dostonlar, eng yaxshi qo'shiqlar, eng yoqimli kuylarning ana shu ulug' zotlarga bag'ishlangani bejiz emas.



\* \* \*

Ona kulsa – xona to'lar,  
Ota kulsa – g'aming ketar.

\* \* \*

Ota-onaning duosi  
O'tga, suvga botirmas.

\* \* \*

Otangni kaftingda tutsang,  
Onangni boshingda tut.

## KICHKINA QUSHCHA

*Hoy, hoy chumchuq — jajji qush,  
Shoxda turma, pastga tush!  
Erta-yu, kech tinmaysan,  
Charchash nima bilmaysan.  
Chirqillaysan izlab don,  
Mana chumchuq, senga non!  
Qorning to'ysa, aytarsan,  
So'ng uyingga qaytarsan!*



**Safar BARNOYEV**

## DARAXTLAR NIMA DEYDI?



Bobosi so'rab qoldi:  
-- Bolam, top, qani, Saydi,  
Shamol tursa, daraxtlar  
Tebranib nima deydi?  
--- Daraxtlarning shoxlari  
Silkinib, xayr, deydi. ,  
Soyam tagida o'ynab,  
Qilaver, sayr, deydi.

## **MEN TUG'ILGAN O'LKA**

Men tug'ilgan hur o'lka,  
Ozod Sharqda nur o'lka.  
Ko'rkam qishloq, shahari,  
Shod o'tar har mahali.

Metall berar Bekobod  
Farhod GESdan el obod.  
Nur olar har xonamiz  
Gullagan Farg'onamiz.

Xalqqa ust-bosh pillasi,  
Bebaho oq tillasi.  
Mevazor bog'u bo'ston,  
Serquyosh O'zbekiston.

## ***SOHIBQIRON O'GITLARI***

❖ O'g'illarim! Millatning ulug' martabasini, saodatini saqlamoq uchun sizlarga qoldirayotgan vasiyat va tuzuklarni yaxshi o'qing, aslo unutmang va tadbiq eting.

❖ Millatning dardlariga darmon bo'lmoq vazifangizdir.

❖ Adolat va ozodlik – dasturingiz, rahbaringiz o'lsin.

## **OQIL BOBO DEYDILARKI:**

– O‘z vatanini sevmagan odam – yomon odam. Kimda-kim o‘z ona diyori-ning zamini-yu, oqar suvlarini, kimsasiz cho‘llari-yu, dala-dashtlarini qalbdan sevolsa, unday odam kam bo‘lmaydi. Zavol ko‘rmay kamol topadi. Vatangado esa xalq qahr-g‘azabiga uchragan kishidir. Vaqti kelib unga hatto bir parcha yer ham, kafan ham buyurmaydi. "Bir siqim ona yer tuprog‘i bir hovuch oltindan qimmat", – deb bejiz aytilmagan.

– Aziz o‘g‘il qizlarim! Inson hayotini charog‘on qilgan, umrini bezagan ham vaqt. Shunday ekan, vaqtni behuda ishlarga ketkazmang. Vaqtni qadrsiz o‘tishiga yo‘l qo‘ymang. Uni foydali ishlar – kitob mutolaasiga, hunar o‘rganishga, mehnat qilishga sarflang, keyin pushaymon tortmaysiz.

❖ Vaqting ketdi – naqding ketdi.

❖ Vaqt kutib turmaydi.

❖ Vaqtni to‘sadigan kuch yo‘q.

## ROST GAPIRGAN YETAR MURODGA

Yolg'onchilik kishini beburd qilib,  
uning obro'-nufuziga putur yetkazadi.  
Kishiga nisbatan ishonchni yo'qotadi.  
Oqibatda, uning yuziga qora tortilib, bu-  
tunlay subutsiz qilib qo'yadi. Subutsiz  
kishi el nazaridan qoladi.

Rost gap aytgan yengilmas.

\* \* \*

Rost so'zlagan yetar niyatga,  
Yolg'on degan qolar uyatga.

\* \* \*

Yolg'onchi yolchimas, o'g'ri boyimas.

\* \* \*

Yolg'onchini so'zidan emas, ko'zidan bil.

\* \* \*

Yolg'onning yoniga yo'lama.

\* \* \*

Yolg'onning umri qisqa.

\* \* \*

Yolg'onchining bahonasi ko'p.

**Baxtiyor JUMAYEV**

## **TARKI ODAT**

O'qituvchi Yodgorni doskaga chiqardi. U viqor bilan o'rnidan turib, doskaning oldiga keldi va she'r o'qiy boshladi. Qaytib joyiga o'tirgach, partadoshiga pichirladi:

– Ko'rdingmi, men qanday zo'r o'qidim. She'r o'qishni mendan o'rganinglar!

Sinfdoshi kulib qo'ydi.

Tanaffus vaqtida hamma o'yin bilan mashg'ul bo'ldi.

– Sizlar nomigagina o'yinchisizlar, – bolalarga ta'na qildi Yodgor. – Nahotki o'yinchi ham shunaqa bo'lsa? Bog'cha bolalari ham sizlardan yuz marta yaxshi. Men bo'lmaganimda o'yinda yutqazib, sharmanda bo'lardinglar. Sizlar avval o'yinni o'rganinglar, keyin o'ynanglar!

Dars tugab sinfdoshlar birga uyga qaytishdi. Qishloqqa kiraverishda ariqcha bor edi. Ko'plar undagi ko'prikchadan o'tishdi. Ammo Akbar ko'prik qolib ariqchadan sakrab o'tdi.



– Ko‘rdinglarmi, qanday zo‘rman, – Yodgorni masxara qilib dedi u. – Mendan o‘rganinglar.

Bolalar ham orqaga qaytib ariqchadan sakrab o‘tishdi. Yodgor ham qatordan qolishni istamasdi. Axir, har ishda namuna bo‘lishni istardi-da! U o‘n-o‘n besh metr orqaga yurib, yugurib kelib hammadan uzoqqa sakramoqchi bo‘ldi. Ammo oyog‘i ariqcha labidagi o‘tlarga o‘ralib, suvga yiqildi. Ust-boshlari ho‘l bo‘ldi. Lekin Yodgor bo‘sh kelmadi:

– Hamma ham sakrashni biladi, lekin yiqilish har kimning hunari emas, – odatiga ko‘ra dedi u. – Ko‘rdinglarmi, men o‘zimni ariqqa qanday tashladim. Sizlar aqalli yiqilishni ham bilmaysizlar. Yiqilishni mendan o‘rganinglar.

### *HANDA*

– Hoy o‘g‘lim, nega sen birovning bog‘idagi olma daraxtiga chiqib olding?

– Bilasizmi, bitta olmangiz uzilib tushgan ekan, shuni joyiga ilib qo‘yay, deb chiqqandim.

## **YAXSHI BOLA BILAN YOMON BOLA**

Ko'chada bir to'da yosh bolalar o'ynab yurar edi. Bittasini chaqirib oldim.

– Sen yaxshi bolamisan, yomon bolamisan? – deb so'radim undan.

– Yaxshi bolaman, – dedi u.

Boshqa bolalar ham yugurib kelib, meni o'rab olishdi. Hammalari baravariga chug'urlab ketishdi:

– Men ham yaxshi bolaman!

– Men ham yaxshi bolaman!

– Men ham yaxshi bolaman!..

Bundoq qarasam bitta bola ularga qo'shilmay nariroqda xotirjam turibdi. Yuz, ko'zlarida jiddiylik alomati.

– Sen-chi? – dedim men. – Sen ham yaxshi bolamisan?

– Yo'q, men yomon bolaman, – dedi u.

Menga boshqalardan ko'ra o'sha bola ma'qul bo'ldi. Chunki u aslida yomon bola bo'lmasa ham, kamtar ekan.

**O'LJA**

Qorni ochib gezarib,  
Rangi-ro'yi bo'zarib,  
Sichqon kirdi teshikdan,  
(Balki oldin eshitgan),  
Shundoq qo'shni omborda  
Donga to'la qop bor-da.  
Chelaklarda pishloq, moy,  
Ko'plar bilmas hoynahoy.  
Tatib ko'rdi bir boshdan  
Bug'doy, makka va moshdan  
Qorni to'yib kekirib,  
Shod bo'lib, tomoq qirib  
Yaqin keldi eshikka,  
Sig'may qoldi teshikka.  
O'lja bo'ldi shu mahal  
Shop mo'ylovli mushukka...



## CHANOQ

U tongda shivir-shivirdan uygʻonib ketdi. Egatlarni yogʻduga koʻmib azamat tong otib kelardi.

– Voy, anavini qara, – chanoqlar chuvillashib hali ochilmagan koʻsakni koʻrsatisharkan, – haliyam uxlab yotibdi.

– Qachongacha yotish mumkin, tezroq uygʻon, – dedi yana biri.

Quyosh koʻtarilib, yangi joʻshqin kun boshlandi. Ana, terimchi qizlar egatlar boʻylab javohirni yigʻishga kirishdilar.

Chanoqvoyning insonni juda koʻrgisi, olamga toʻyib-toʻyib qaragisi kela boshladi.

– Meni koʻrmay oʻtib ketishsa-ya? – Birdaniga chanoqvoyini qoʻrquv bosdi, – unda nima qilaman?

Yoʻq, egatdan chaqqon harakat qilib kelayotgan xushroʻygina terimchi qiz birdan uni koʻrib qoldi. Chunki u bargning tagida edi-da.

Bir nafas tikilib tomosha qilib turdi, yuzlariga tabassum yoyildi.

– Qara, – dedi dugonasiga, – bunday chanoqni birinchi ko‘rishim.

U shunday deb chanoqni bargi bilan uzdi-da, chakkasiga taqib yo‘lida davom etdi. Endi chanoqcha baxtiyor edi. U bepoyon paxtazorni, shirin nuri bilan erkalayotgan quyoshni ko‘rib borardi.

U oppoq bo‘lib ochilguncha dehqon kaftini qadoq qildi, necha-necha tunlarini oromsiz o‘tkazdi. Endi esa shuning evaziga chanoqvoy xalqqa xizmat qiladi.

## ***SOHIBQIRON O‘GITLARI***

❖ Sodiq va vafodor do‘st ulkim, o‘z do‘stidan ranjimaydi, do‘stining dushmanini o‘z dushmani deb biladi. Agar kerak bo‘lsa, do‘sti uchun jonini ham ayamaydi.

❖ Har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulmu sitam yo‘lini to‘sdim.

❖ Kuch – adolatdadir.

❖ Bir kun keladiki, zolim o‘z barmoqlarini tishlaydi.

**Rahima QOSIMXO'JAYEVA**

## **QULOG'I TOPILDI**

– Kechagi aytganlaringizni-chi, oyi, hammasini o'rganib bo'ldim, aytib beraymi?

– Ha, mayli. Bo'lmasa oyog'ing qani?

Erkinjon:

– Mana, – deb oyog'ini ko'tarib ko'rsatgan edi, yiqilib tushishiga sal qoldi.

– Qulog'ing-chi?

– Mana.

– Qani, yo'q-ku?

– Mana turibdi-ku, hozir oynaga qarab kelay-chi, turibdimikan. Siz qalpog'imning tagida turgani uchun ko'rmayotgandirsiz.

Erkinjon oynaga qarab kelib:


– Bor ekan-ku. Mana, – dedi qulog'ini cho'zib ko'rsatib.

– Bari bir qulog'ing yo'q, nega deganda boya supurgini olib kelib ber desam, quloq solmading. Gappa quloq solmagan bolalarning qulog'i yo'q bola deyishadi.

Erkinjon chopib borib, hovlining bir chekasida, daraxt tagida turgan supurgini ko'tarib keldi va:

– Endi qulog'im bor-a? – dedi.

## QIZG'ANCHIQ IT



Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, bir it bor ekan. U juda ochko‘z ekan.

Bir kuni shu it sheriklari bilan talashib, kattakon bir suyakni olib qochibdi. U suv ustidagi yakka cho‘pdan o‘tayotsa, suvda bir it og‘zida katta suyak tishlab, ko‘zlarini olaytirib, itga tikilib turgan emish. It:

— Irr-ir-ir, — deb tishini irjaytirgan ekan, suv ichidagi it ham tishini irjaytiribdi.

Qizg‘anchiq it uning og‘zidagi suyakni ham tortib olmoqchi bo‘libdi va “Hap!” — deb itga tashlanibdi. “Hap!” deyishi bilan og‘zidagi suyak o‘zidan oldinoq “Cho‘lp!” etib suvga tushib ketibdi. Qizg‘anchiq it rosa shalabbo bo‘lib, suyagidan ham ajralib, suvdan chiqibdi.

## BO'RI BILAN ECHKI

(*O'zbek xalq ertagi*)

Bir kuni echki podadan ajralgan ekan, oldidan och bo'ri chiqib qolibdi.

— Seni yeyman! — debdi bo'ri.

— Meni-ya!

— Ha, seni!

— Rahm qil.

— Men juda ochman! Rahm qilmayman! Seni bir yamlab yutaman! — debdi bo'ri.

— Juda och bo'lsang, mayli yeya qol. Senga rahmim keldi, — debdi echki.

— Yaxshi echki ekansan, — debdi bo'ri.

— Yana bir yaxshilik qilay. Sen qiynalib o'tirma, og'zingni ochib tur, men shundaygina og'zingga kிரaman-qo'yaman.

Bu gap bo'riga ma'qul tushibdi. U og'zini ochib turibdi.

Echki nima qilibdi deng?!

U tisarilib, uzoqdan chopib kelibdi-da, kuchining boricha bo'riining og'ziga suzibdi. Bo'ri shu zahotiyoq hushidan ketibdi.

Bo'ri hushiga kelib qarasa, jag'i yirtilgan, hammayog'i tiralgan, a'zoyi badani qaqshab og'rir ekan. Echkidan esa nom-nishon ham yo'q emish.



## TAN SIHATLIK — TUMAN BOYLIK

O'tgan zamonda bir qashshoq donishmand cholning oldiga kelib:

— Ota, yeyishga nonim, kiyishga kiyimim yo'q, juda qiynaldim, nima qilishimni bilmay qoldim. Endi qayerga borib dod desam ekan, — debdi.

Chol: — Sen kambag'al misan? — desa, u:

— Ha, bola-chaqalarim va o'zim ochman, kiyim-kechagim yo'q, — deb nihoyatda zorlanibdi.

Chol: — Xo'p, bo'lmasa menga o'ng qo'lingni sot, necha pul beray, — desa, haligi yigit:

— Yo'q, o'ng qo'lim o'zimga kerak, sotmayman, — debdi. Shunda chol:

— Bo'lmasa o'ng ko'zingni sot, — debdi. Yigit:

— Nega men o'ng ko'zimni sotar ekanman, u menga doimo kerak, — debdi.

Chol shu tarzda yigitning tana a'zolarini birma-bir sotgin, deb aytib chiqibdi. Yigit “Yo'q” javobini qaytaravergach, chol yigitga:

— Ha, butun muchallaring sog' bo'lsa, turmushdan zorlanib nima qilasan. Kishining tan-joni sog'ligi — tuman boyligi-ku. “Sog' tanda, sog' aql” deb bekorga aytmaganlar. Sog' bo'lsang, har qanday ish bajarsang, qo'lingdan keladi. Kuning o'tadi, — deb javob qaytargan ekan.

## SOHIBQIRON AMIR TEMUR HIKOYATLARIDAN

Bir kuni padari buzrukvorimiz – Amir Tarag'oy bahodir ko'p qo'ylarni menga berib, Samarqand bozoriga savdoga yo'lladilar. Qo'ylarning hammasini ming oltinga sotib, pullarini belga bog'lab sayr qilib yurar edim. Bir yerda xushovoz qalandar odamlarga so'zlab turg'on ekan: qo'lida qog'oz – she'r bitilgan, u der edi:

– Shul yozuvning qadriga yetib, kim ming oltinga olsa, dunyoning oxiriga yetadi...

Himmatim jo'shib, ming oltinni qalandarga tutqazdim. U menga tikilib turdi-da, so'ng nasl-nasabimni so'radi. Aytdim. So'ng tayin qildi:

– Otang oldig'a borg'il, buni otang oldida o'qi, borg'uncha ochma...

Qog'ozni keltirib, padari buzrukvorga berdim. Ochib o'qidilar. Forscha ruboiy ekan – ma'nosi quyidagicha: Zulm bilan dunyoda nom qoldirib bo'lmaydi. Jamshid, Sulaymon, Iskandarlar o'tib ketdi, navbat senga ham yetishi tayin. Dunyoga keldingmi yaxshilik bilan nom qoldir...

Ruboiyning muallifi – o‘shal qalandar-alloma shoir Kamol Xo‘jandiy erkan. Ul zotni padari buzrukvorimiz ko‘p hurmat qilar ekanlar.

– Barakalla, o‘g‘lim, ko‘p dono ishga oltinlarni sarf etibsan. Endi, ming olting‘a olg‘on ushbu hikmatga qat‘iy rioya qilmoq lozimdir...

Padari buzrukvorning aytganlarini bosh ustida tutdim.

## ***SOHIBQIRON O‘GITLARI***

- ❖ Bilagi zo‘r - birni yiqar, bilimi zo‘r mingni.
- ❖ Adovat emas - adolat yengadi.
- ❖ Avval yo‘ldosh – keyin yo‘l.
- ❖ Bir kalima shirin so‘z qilichni qinga kiritar.
- ❖ Birliksiz kuch bo‘lmas.
- ❖ Do‘stlik – sinovda chiniqadi.
- ❖ Kechira olishlik – mardlik, kechira bilmaslik nomardlik sanaladi.
- ❖ Eng baland minora ham yerdan ko‘tariladi.
- ❖ Yaxshi odam yurt tuzar, yomon odam yurt buzar.

**HASSA**

Qobil boboning ikki nabirasi — Shavkat bilan Shuhrat qo'shni xonada o'ynab o'tirishar edi. Nima bo'ldi-yu, ikkovlari boshlashib qolishdi.

Shavkat yugurib bobosining oldiga chiqqida:

— Bobo! Kim odobli, menmi yoki Shuhratmi? — deb so'radi.

Qobil bobo hovliga chiqmoqchi bo'lib turgan edi. Uning kumush halqa qadalgan hassasi Shavkat bilan Shuhrat o'ynab o'tirgan uyda edi.

— O'g'lim, avval menga hassamni keltirib ber, keyin men o'ylab javob beraman, — dedi nabirasiga.

— Yo'q, avval aytasiz! — Oyoqlari bilan polni tepib turib oldi Shavkat.

— Axir, o'ylab ko'rish kerak-da, — dedi Qobil bobo.

— Bo'lmasam, hassangizni keltirib bermayman. — Shavkat qaysarlik bilan polga o'tirib oldi. — Keltirib bermayman.

Qobil bobo hassasini keltirish uchun o'rnidan endigina qo'zg'algan edi, shu payt xonaga, bobosiga salom berib. Shuhrat kirib keldi.

— O'g'lim, hassamni sen keltirib ber! — dedi Shuhratga bobosi.

— Xo'p bo'ladi, bobojon! — dedi Shuhrat bobosining gapi tugamasidanoq.

U kumush halqa qadalgan hassani darrov keltirib, bobosiga berdi. Keyin o'rnidan turayotganda bobosining qo'lidan ushlab, turishga yordamlashdi.

— Rahmat, o'g'lim, — dedi Qobil bobo nabirasining peshanasini silab, — umring yzoq bo'lsin!

— Bobo, kim odobli? Menmi yoki Shuhratmi, ayting axir! — der edi Shavkat yer tepinib.

Qobil bobo kumush halqali hassasini do'qillatganicha hovliga chiqarkan:

— Shuhrat odobli! — deb javob berdi.

## TOPISHMOQ

Kunduz nurin sochadi,  
Kechga borib qochadi.



## **YAXSHILIK**

Fazliddin o'rtog'i Nabi bilan ko'chada o'ynab yurardi. Shu payt uzoqdan qo'shnilari Normamat boboning kelayotganini ko'rib qoldi. Cholning qo'lida tugunchasi ham bor edi. Fazliddin hovliqib, o'rtog'iga kerildi: — Hozir-chi men borib Normamat bobomlarga yordam beraman. Bilasanmi, men doim qariyalarga yordam beraman. Meni Normamat bobo juda yaxshi ko'radilar. Ishonmasang, men bilan yurgin, o'zing ko'rasan.

Bolalarga yaqinlashib qolgan Normamat bobo Fazliddinning so'zlarini eshitdi chog'i, miyigida jilmayib qo'ydi. Fazliddin boboning oldiga yugurib bordi va uning qo'lidan tugunchani oldi.

— Bobo, keling yordamlashib yuboray, sizga doim yordam beraman-a? — so'radi Fazliddin, Nabi eshitsin uchun jo'rttaga baqirib.

— Ha, har doim yordam berasan, — boshini qimirlatib tasdiqladi Normamat bobo.

Fazliddin oldinda, Normamat bobo orqada yo'lga tushdilar.

Uyiga yetganidan keyin Normamat bobo

Fazliddinning qoʻlidan tugunchani oldi. Lekin har galgidek “Barakalla, boʻtalogʻim, odobli bola ekansan”, deb maqtamadi. Faqat quruqqina qilib: “Rahmat”, dedi va engashib, Fazliddinning qulogʻiga allanarsalar deb pichirladi. Keyin kulimsiraganicha uyiga kirib ketdi.

Fazliddin noqulay ahvolga tushib qoldi. Labini tishlab, chap oyogʻi bilan yer chizdi. Uning yoniga yugurib oʻrtogʻi keldi.

— Ha, nega nafasing ichingga tushib ketdi?  
— soʻradi Nabi. — Normamat bobo nima dedilar?

Fazliddin boshini koʻtarolmasdi.

— Nega indamaysan?

— Yaxshilik qil, lekin ketidan maqtanib, uni yuvib yuborma, dedilar Normamat bobo, — zoʻrgʻa javob berdi Fazliddin.

## **TEZ AYTISHLAR**

Hali Vali, Soli sholi oʻrdi.

\* \* \*

Oydin oydinda oyisidan oldin bordi.

\* \* \*

Turdi tunda oʻnta toʻnka toʻpladi.

\* \* \*

Norning nordon anori narida.

# HALOLLIK

*(O'zbek xalq ertagi)*

O'tgan zamonda bir dehqon bo'lgan ekan. Uning kambag'al oshnasi bor ekan. Kunlardan bir kuni u dehqondan bir tanob yerini sotishni iltimos qilibdi. Dehqon yerning bir chekkasidan ajratib, kambag'al oshnasiga sotibdi.

Yerni olgan odam jo'jabirdek jon ekan. U yer sotib olganidan juda suyunibdi. Bir qalin og'aynisidan qo'sh ho'kiz olib kelib, yerni bir marta haydab chiqibdi. U ikkinchi marta haydaganida, bir nima omoch tishiga tegibdi. Dehqon parvo qilmay, hayday beribdi. Qaytib o'sha yerga kelganida, omoch tishi yana haligi narsaga urilibdi. Kambag'al dehqon: "Ilgari bu yerda daraxt bo'lgan, uning to'nkasi qolib ketgan, shekilli", — deb o'ylabdi-da, ketmon olib kelib, omoch tishiga qadalgan narsani kovlay boshlabdi. Nihoyat, u yerdan xumcha chiqibdi. Uni ochib qarasa, ichi to'la tilla emish. Dehqon yerning qolgan qismini ham haydab, urug'ini sepibdi. So'ng ho'kizlarini egasiga topshirib, o'zi uyiga bormay, xumchadagi tillani ko'tarib, to'g'ri yer sotgan dehqon osh-



nasining uyiga boribdi. U oshnasiga:

— Sizdan olgan yerimni haydayotgan edim, mana shu xumchani topib oldim. Shu tilla sizniki ekan, uni sizga olib keldim, — debdi.

Dehqon kambag'alga:

— Men sizga o'sha yerni sotganman. Shu yerda nimaiki bo'lsa, u sizniki bo'ladi. Men yerning ichida tilla borligini bilmaganman. Sizga xudo beribdi. Bola-chaqangiz bilan maza qilib yeng, — deb xumchani olmabdi.

Kambag'al dehqon esa: "Bu boshqa kishi-ning moli. Uni olsam, o'g'ri, jinoyatchi bo'lib qolaman", — deb o'ylab, yana xumchani boy dehqonga uzatibdi. Ular ikkalasi hech kelisha olmabdi. Nihoyat, ular namozi asr o'qilayotgan masjidga boradigan, u yerdagi odamlardan so'rab, bu ishni hal qiladigan bo'lishibdi... Ular:

"Bo'lmasa, qishloqdagi yetim-yesir va beva-bechoralarga bo'lib beringlar", — deb maslahat berishibdi. Bunga dehqon ham, kambag'al ham rozi bo'libdi. Shunday qilib, ular tillani qishloqdagi beva-bechoralarga, kambag'al, yetim-yesirlarga bo'lib berishibdi.

Kambag'al dehqon esa, o'z mehnati bilan halol kun ko'rib, murodu maqsadiga yetibdi.

# HOSILI DEB... KO'CHAT EKYAPMAN

(O'zbek xalq ertagi)



Qarib bukchayib yurolmay qolgan Ayiq ko'chada o'ltirib olib, tesha bilan hadeb yer kovlar edi. Shunda tepasiga hayvonlar sultoni — Sher (Arslon) kelib so'radi:

— Ha, Ayiqpolvon yerni kovlab nima qilmoqchisan?

— Ko'rmayapsanmi, sultonim, daraxt ekyapman, — javob berdi Ayiq.

— Voy kaltafahm-ey, bir oyog'ing yerda, bir oyog'ing go'rda bo'la turib, ko'chat ekayotganingni qara-ya. Bu hosil bergunicha ko'karib chiqasan-ku.

— Og'zingga qarab gapir, — dedi Ayiqning jahli chiqib. — Buning hosildan hali senga ham olib boraman.

Arslon Ayiqning soʻzidan taʼsirlanib unga bir bochka asal beribdi. Asalni qoʻlga olgan ayiq birdan xaxolab kulib yuboribdi.

— Nega kulasan, befarosat, — soʻradi Arslon.

— Ey, hayvonlarning sultoni, oʻrmonlarning homiysi, kulmay nima qilay, kulaman-da. Manavuni qara, — dedi Ayiq qoʻlidagi asalga ishora qilib. — Ekkan koʻchatimning birinchi hosilini koʻrib turibman. Oʻrnimdan qoʻzgʻalmasdan yotaverganimda sen asal tugur bir qultum suv ham bermasding.

## MAQOLLAR

*Aql — yoshdan, odob boshdan.*

\* \* \*

*Bugungi ishni ertaga qoʻyma,  
Ertaning ham oʻz ishi bor.*

\* \* \*

*Bulbul chamanni sevar,  
Odam — vatanni.*

\* \* \*

*Avval oʻyla, keyin soʻyla.*

## AQLLI DEVONA

*(Uyg'ur xalq ertagi)*

Qadim zamonda bir podsho o'tgan ekan. Bu mamlakatda bir devona bo'lib, aqlliligi, tadbirkorligi bilan mashhur ekan. Devonaning ta'rifini eshitgan podsho uni huzuriga chaqirtiribdi. Devona: "Haq do'st yo alloh!" deya saroyga kirib kelibdi. Podsho uning aqlu zakovatini sinab ko'rish maqsadida yuzini tutibdi. Unga javoban devona tomog'iga ishora qilibdi. Podsho boshini ushlagan ekan, devona tilini ko'rsatibdi. Uning javobidan qanoatlangan podsho xizmatkoriga bir lagan tillo olib kelishni buyuribdi. Oltin tangalarini podshoning o'zi devonaning xurjuniga solib beribdi. Buni ko'rgan vazir-u yuzarolar norozi bo'lib g'udurlashibdi:

— Har kuni salomga kirganimizda podsho ko'plarimizning salomimizga alik ham olmasdi, manavi devonadan ikki og'iz gap ham so'ramay, bir lagan tillo berib yuborgani nimasi?!

Vazirlarning tumtayib turganini

ko'rgan podsho ularga tanbeh beribdi.

— Ey vazirlar, ba'zilaringiz saroyda xizmat qilayotganingizga o'ttiz yil, ba'zilaringizga to'qqiz yil bo'ldi, biroq birontangizda o'sha devonadagi aqlu donishni ko'rmadim. Men undan: "Odamning beti nimadan shuvit bo'ladi?" deb so'rasam, "Jigildondan", deya javob berdi. "Bosh nimadan ketadi?" deb so'rasam, "Tildan", deya javob berdi. Qani endi o'zinglar aytinglar-chi, mening savollarimga sizlar ham shunday javob qaytara olarmidinglar? Agar shunday zukkolikka qodir bo'lsanglar, hoziroq har biringizga xazinamdagi bor oltin-u kumushni bo'lib beraman, — debdi podsho.

Vazirlar yer chizgancha miq etolmay qolishibdi.

## TOPISHMOQ

*Osmonda o'nta yulduz,  
Endi quloq sol QUNDUZ.  
Yashirindi beshtasi,  
Ayt-chi goldi nechtasi?*

# POLVON

(Uygʻur xalq ertagi)



Qadim zamonda bir polvon oʻtgan ekan. U katta toshlarni bemaolol bir qoʻli bilan koʻtarib oʻynar ekan. Polvon bilan kurashishga oʻzga yurtlardan kelgan polvonlar uning kuch-quvvatini koʻrgach, dami ichiga tushib, qaytib ketishar ekan. Unga, sari polvonning dimogʻi shishib, hech kimni nazar-pisand qilmay qoʻyibdi, hatto kunlarining birida: “Agar yerning tutqichi boʻlsa, uni bir qoʻllab aylantirib tashlardim”, deb manmanlik qilibdi. Uning gapi ogʻizdan-ogʻizga oʻtib, hammaning qulogʻiga yetibdi, baʼzi polvonlar afsuslanib bosh chayqashsa, baʼzilari shunday boʻlishi ham mumkin, degan oʻyga borishibdi.

Polvon esa borgan sari odamlarga

zo'ra vonlik qiladigan, ko'ngli tusagan ishdan qaytmaydigan muttaham bo'lib ketibdi. U hatto biron joyga sayohatga borsa, podshoning qizini o'ziga hamroh qilib olar, podsho e'tiroz bildirsa, po'pisa qilib qo'rqitar ekan. Kunlarning birida polvon navbatdagi sayru sayohatdan qaytib kelayotsa, tog' etagida o'tirgan oppoq soqolli cholga duch kelibdi. Mo'ysafid har qancha urinmasin, kichkinagina qutini egarga ololmay halak ekan. Polvon yaqin kelgach, mo'ysafid:

– O'g'lim, seni polvon deb e'shitaman. Iltimos, mana shu qutini otga ortib ber, – debdi.

Polvon cholning nochorligini mazax qilib miyig'ida kulib qo'yibdi-da, qutini jimjilog'i bilan ko'tarmoqchi bo'libdi, lekin joyidan qimirlatolmabdi. Polvon ajablanib, qutini bir qo'llab ko'tarishga urinibdi. Lekin siljita olmabdi. Polvonning battar hayrati oshib, ikki qo'llab yopishibdi. Lekin kichkinagina quti amriga bo'ysunmabdi. Polvol goh yelkasi bilan tutib, goh quchoqlab harchand urinmasin, quti yarim enlik ham siljimabdi. Qaro terga tushib ketgan polvon bor kuchini, bor mahoratini ishga solsa ham, qo'lidan hech

narsa kelmabdi. Uni kuzatib turgan mo'ysafid:

— Polvonman deb ko'krak kerib, hamma-ga zo'ravonlik qilib yurarding, bitta qutini ko'tarishga ham chog'ing kelmas ekan-ku, — debdi.

Polvon nima deyishini bilmay yer chizib qolibdi.

— Sen o'zingga ato etilgan kuch-quvvatni yaxshilikka sarflab, odamlarning xizmatiga kamarbasta bo'lmading. Bundan buyon sichqondan boshqa narsaga kuchi yetmaydigan yapaloqqushga aylanib qol, — deya duo qilibdi mo'ysafid.

Polvon shu zahoti yapaloqqushga aylanib qolibdi. Haligacha kunduzi odamlarning ko'ziga ko'rinishga uyalib, faqatgina kechasi inidan chiqib, sichqon ovlar ekan.

**Anvar OBIDJON**

## QIZILGUL

Qizilgulning  
G'unchasi —  
Atir to'la  
Xumchasi.

Yaproqlari  
Yostiqlari...  
Tikanlari —  
Ortiqlari.



## TO'G'RINING — KO'NGLI TO'Q

Devorning yonma-yon kavagidan mo'ralab turgan ikki sichqon oftob tushib turgan joyda yong'oq yeyayotgan bog'bonni ko'rib shivirlashibdi.

— Odati qiziq ekan. So'rab kelgan qo'shni sichqonlarga ko'targanicha yong'oq berarmish. Biz ham qo'shnimiz-ku, yur, — debdi birinchi sichqon.

— Zotimizni yomon ko'rardi-ku, men unga ishonmayman. O'g'rilik qilmasin deb, bitta-bitta yong'oq berib aldasa kerak. Unga bildirmay bittadan yong'oq tashisam ham bir qishlikni yig'ib qo'yaman, huzur qilib yeyman, — debdi ikkinchisi va sheringining qistoviga ko'nmabdi.

Birinchi sichqon xushmuomalalik bilan bog'bondan yong'oq so'radi:

— To'g'rilik bilan so'rab kelganingdan xursandman. Necha dona yong'oq ko'tara olasan? — debdi bog'bon.

— Uchta.

Bog'bon uchta yong'oqni bir parcha lattaga tugib unga beribdi-da:

— Yo'lda kimni ko'rsang, so'rab oldim,

degin. Shunda senga hech kim indamaydi. O'z yaqiningdagilarga ham ayt. Kelishsin, qo'shni haqi deb ularga ham yong'oq beraman. Agar kim o'g'rilik qilsa, siri ochiladi, keyin adabini beraman.

Tugunchani bemalol, shahdam ko'tarib uyiga ketayotgan sichqon yo'lda sherigini uchratibdi. Sherigining yuragi taka-puka, qinidan chiqib ketayotgandek. Bog'bon amaki engashib turganda pisib borib bitta yong'oqchani o'g'irlagan ekan. Qo'rquv bilan kelayotgani uchun yuzidan oqqan terga mo'ylovlari ho'llanib, shalpaygan. Buning ustiga qo'shnisini uchta yong'oqni bemalol ko'tarib kelayotganidan bo'shashibdimi, yong'ogi qo'lidan uchib ketibdi. Bog'bonning "Hay o'g'ri!" degan ovozi eshitilibdi. Uchgan yong'oqni olmoqchi bo'layotgan o'g'ri sichqon bir irg'ib tushdi-yu, qochib qolibdi.

— Yaxshiyam uning fikriga qo'shilmaganim. Bo'lmasa o'g'ri bo'lib qo'lga tushardim, — debdi sherigi.

To'g'rining — ko'ngli to'q, egrining — yo'li yo'q, deb shunga aytadilar-da!

## NAVRO'Z

Olam yasharganda qahrabo yalpizlar ilk bor anhor labida bo'y taratadi. Chechaklar olis dalalardan shu anhorda oqib keladi. Bahor nashidasidan anhor mast bo'ladi, o'ziga sig'may, to'lib-toshib oqadi. Jo'shqin oqadi, yo'rg'a to'lqinlari quvlashmashoq o'ynaydi.

Yaxshisi ana shunday pallada siz ham anhorga keling. Keling-da, shu qadar xayol suringki, o'ylaringizni anhor o'ziga qo'shib oqizsin.

Hadik olmang, ipakday mayin, buloq suviday tiniq, ezgu xayollaringizga hech kimsa xalal bermaydi. Yolg'iz qurbaqalargina jag'lariga zo'r beradilar, basma-bas sayraydilar. Parvo qilmang, tubsiz xayollaringiz ular xonishini ko'mib yuboradi. Shirin o'ylaringiz tufayli bu sayroqni eshitmaysiz.

Kishini bo'liq xayol toliqtiradi. Birdan oyoqqa qalqing, ha, qalqing oyoqqa! Axir, xayollaringizni suvga oqizib bo'ldingiz-ku!..

Anhor yoqasidan qaytar paytingizda sukunat cho'kadi. Qurbaqalarning "vaq-

vaq”i tinganini payqaysiz. Oshiqning, buning boisi o’zingizga darhol ayon bo’ladi. Sambit tol shoxida bulbul xonish etayotganini ko’rasiz. Dilgir navodan yurak xapqiradi. Tabiatning bu jajji go’zalligi qurbaqalar tovushini bo’g’ib qo’ymadimikin! Ha, bulbul xonishi atrofni elitib yuborganda, qurbaqalar bir lahzada gumdon bo’ladi. Axir, bolalar, “Qush yo’q joyda qurbaqa — bulbul”, — deb bejiz aytishmagan-da.

## MAQTANCHOQ QUYON

Kunlardan bir kuni jikkakkina ola quyon sheriklariga maqtanibdi:

— Bo’ridan qo’rqmayman, tulkini bir puf-lab osmonga uchirib yuboraman, — deb chiranibdi.

Hamma uning mardligiga qoyil qolib, yoqa ushlab turganda birdan bo’ri kelib qolibdi.

— Hap! — quyonlarga tashlanibdi u.

Ola quyon hammadan oldin o’zini eshikka uribdi. Bo’ri uning yo’lini to’sibdi. Shu on ola quyon o’lar-tirilariga qaramay bir sakragan ekan, bo’rining boshiga chiqib qolibdi. Buni tum-taraqay qochayotgan quyonlarning hammasi ko’ribdi. Bo’ri esa ola quyon-

ni irgʻitib yuboribdi. Ola quyon zoʻrgʻa qutulib bir necha vaqt nafasini rostloimay, changal-zorda yotibdi.

U kech kirganda uyga kirib boribdi.

— Ahvollaring qalay? — debdi u gerdayib.

— Xayriyat, omon ekansan. Boʻriga yem boʻlgansan, deb oʻylagan edik, — deyishibdi quyonlar.

— Be-e, — debdi ola quyon sir boy bermay va maqtanib ketibdi! Yem boʻlib boʻpman. Boshiga chiqib bir tepdim, til tortmay oʻlib qoldi.

Ola quyon oʻrtaga chiqib, boʻrining terisini qanday shilganini maqtanib soʻzlab ketibdi.

— Rahmat senga ola quyon, boʻridan qutulibmiz, — debdi quyonlar.

— Ha, butunlay qutuldinglar, — debdi kerilib ola quyon va boʻri poylab turmaganmikan deb xavotirlanib atrofiga qarab qoʻyibdi. U maqtanchoq, lekin juda qoʻrqoq ekan.

